

ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA INKLUZIV TA'LIMNING ILMIY-NAZARIY VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Kenjayeva Lobar Quyli qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Email: khenjayevalobar@gmail.com

Ilmiy rahbar: p.f.f.d.,(PhD) F.U.Olloqulova

Annotatsiya: Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida har bir insonning teng huquqli ta'lim olishini ta'minlash, ayniqsa imkoniyati cheklangan va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga faol jalb etish masalasi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim yondashuvi barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim pedagogik yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Kalit so'z: inkluziv ta'lim, ta'lim konsepsiyasi, individual yondashuv, differensial ta'lim, hamkorlik, xotira, korreksion pedagogika, ko'rish qobiliyati, autizm, tug'ma nuqsonlik, asfiksiya, meningit, nerv sistemasi.

Annotation: Today, in the global education system, ensuring equal access to education for every individual, especially involving children with disabilities and special educational needs in active participation in social life, is considered one of the most urgent tasks. In the modern education system, the inclusive education approach is recognized as an important pedagogical direction aimed at creating equal opportunities for all children, developing their abilities, and supporting their socialization process.

Keywords: inclusive education, educational concept, individual approach, differentiated education, cooperation, memory, correctional pedagogy, visual impairment, autism, congenital disability, asphyxia, meningitis, nervous system.

Аннотация: В современном мировом образовательном пространстве обеспечение равного доступа к образованию для каждого человека, особенно вовлечение в общественную жизнь детей с ограниченными возможностями и особыми образовательными потребностями, является одной из актуальных задач. В современной системе образования инклюзивный подход признается важным педагогическим направлением, направленным на создание равных возможностей для всех детей, развитие их способностей и поддержку процесса их социализации.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularning ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va sog‘lom rivojlanishini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan 72-sessiyasida ”O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan “Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro Konvensiya” loyihasini ishlab chiqish taklifi ilgari surildi. Prezidentimiz ushbu nutqida yoshlarning huquqlarini himoya qilish va ularning sifatli ta‘lim olish imkoniyatlarini ta‘minlash masalasiga alohida to‘xtalib shunday ta‘kidlagan edi: “Yoshlar huquqlari – bu eng avvalo ularning tinch va sog‘lom yashash hamda ta‘lim olishga bo‘lgan huquqlaridir. Unib-o‘tib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo‘lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta‘lim olishini ta‘minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri barcha bolalar uchun teng ta‘lim imkoniyatlarini yaratish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta‘lim konsepsiyasi alohida ta‘lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta‘lim muhitiga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta‘lim – bu nogironligi yoki rivojlanishida turli xususiyatlari mavjud bo‘lgan bolalar bilan bir qatorda barcha o‘quvchilar uchun teng, qulay va moslashtirilgan ta‘lim sharoitlarini yaratishga qaratilgan pedagogik tizimdir.

Inklyuziv ta‘limning nazariy rivojlanishida maxsus pedagogika sohasidagi olimlarning ilmiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, Nikolay Maloferov alohida ta‘lim ehtiyojiga ega bolalarni ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish masalalarini chuqur tadqiq qilgan. Uning tadqiqotlarida maxsus va umumiy ta‘lim tizimlari o‘rtasidagi integratsiya mexanizmlari hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning samarali shakllari yoritilgan. Shuningdek, Vladimir Lebedinsky rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologiyasi va ularning ta‘lim jarayonidagi psixologik xususiyatlarini o‘rganib, inklyuziv ta‘limni tashkil etish uchun zarur psixologik asoslarni ishlab chiqqan.

Xorijiy tadqiqotchilar ham inklyuziv ta‘limning nazariy va metodologik asoslarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Jumladan, Mel Ainscow va Tony Booth tomonidan ishlab chiqilgan “Index for Inclusion” modeli maktablarda inklyuziv madaniyat, siyosat va amaliyotni rivojlantirish mexanizmlarini asoslab beradi. Ushbu model ta‘lim muassasalarida barcha o‘quvchilar uchun qulay o‘quv muhitini yaratish, diskriminatsiyani bartaraf etish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan. Bundan tashqari, inklyuziv pedagogikaning konseptual asoslari Lani Florian tomonidan ishlab chiqilgan. Olim inklyuziv ta‘limni tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, individual yondashuv va moslashuvchan o‘quv metodlarining muhimligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, Thomas Hehir inklyuziv ta‘lim siyosati va uning

ijtimoiy adolat tamoyillari bilan bog'liqligini tahlil qilgan. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish bir qator pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Bular qatoriga teng imkoniyatlar tamoyili, individual yondashuv, differensial ta'lim, o'quv muhitini moslashtirish, pedagogik hamkorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi tamoyillar kiradi.

Nutq ruhiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqi rivojlanishni boshlashi bilan kattalar so'zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi.

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati -bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Korreksion pedagogika fanida imkoniyati cheklangan bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi. Ular quyidagilardir:

- eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);
- ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
- aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;
- nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- ruhiy rivojlanishi sust bolalar;
- mujassam kompleks nuqsonli ko'r-kar-soqov bolalar;
- rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
- autizm sindromiga chalingan bolalar.

Tug'ma nuqsonlar genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siriga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, eshitish, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaiflikning nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi (fenilketonuriya, Daun kasalligi, rezus faktorning mos kelmasligi va boshqalar). Ota-onalarning alkogolizmi, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning nuqsonli bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin. Turmushda orttirilgan nuqsonlar bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. Tug'ruq vaqtida miya shikastlanishi, bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar,

ba'zan uning nuqsonli rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bolaning ilk yoshligida (uch yoshgacha) turli kasalliklar bilan og'rishi, masalan, meningit, meningoensefalit, otit, makraziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham nuqsonli rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa: Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda inklyuziv ta'limni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichda o'quvchilarda bilishga qiziqish, ijtimoiy faoliyat va o'zaro hamkorlik ko'nikmalari shakllanishi sababli ta'lim jarayonida interfaol metodlar, ko'rgazmali vositalar hamda moslashtirilgan o'quv materiallaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Shu orqali o'quvchilarning tafakkuri, ijtimoiy ko'nikmalari va shaxsiy rivojlanishi samarali tarzda ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 05.01.2023 y. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
3. Rasulova, A.T. (2022). Ota-onalar bilan ta'lim jarayonidagi hamkorlik: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. O'zbekiston ta'limi, 6(1), 56–63.
4. Shomahmudova, R.Sh. (2007). Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent.
5. Shomahmudova, R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta'lim. Uslubiy qo'llanma.
6. Shomahmudova, R.Sh., Berdiyeva A. (2018). Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish uslublari.
7. Abdullayev, K.F., Jo'rayev, B.T. (2020). Formirovanie pravilnoy osanki rebenka v semye. Vestnik nauki i obrazovaniya, 21-3(99), 30–33.
8. Abdullayeva, G.S. (2022). Maxsus va inklyuziv ta'limda AKT. ZEBO_PRINT.
9. Azizova, Z. (2022). Conceptual fundamentals of preparing children for social protection. Yosh tadqiqotchi jurnali, 1(5), 404–410.